Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxonalar moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilimdorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi.....	1024
Ayubov Ilyos Iloxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari.....	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari.....	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalarini faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talblar.....	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati.....	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	



EKO VA AGRO-TURIZMDA RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQUISHNING ISTIQBOLLARI

Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna

Phd, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mnurfajziyeva@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-8268-8942>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eko va agro-turizm yo'nalishlarida raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, ekologik toza, mahalliy xususiyatlarga ega va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi turizm mahsulotlarini yaratish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, mahalliy aholi bandligini oshirish va tashrif buyuruvchilarning qoniqishini ta'minlash imkoniyatlari o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitida eko va agro-turizm salohiyatiga ega hududlar misolida tahlillar keltirilib, zamonaviy marketing, raqamli texnologiyalar, hamda mahalliy brend yaratish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqish istiqbollari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida milliy model ishlab chiqish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Eko-turizm, agro-turizm, raqobatbardoshlik, turizm mahsuloti, barqaror rivojlanish, hududiy salohiyat, innovatsion xizmatlar, mahalliy brend, turizm marketing, ekologik tozalik, mahalliy aholi ishtiroki, turizmni boshqarish.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of developing competitive tourism products in the fields of eco- and agro-tourism. In particular, it explores opportunities to foster regional economic development, increase local employment, and enhance visitor satisfaction through the creation of environmentally friendly, locally specific, and sustainable tourism products. The article presents analyses based on regions in Uzbekistan with eco- and agro-tourism potential, and outlines prospects for developing competitive tourism products through modern marketing strategies, digital technologies, and the creation of local brands. Furthermore, the article provides proposals for developing a national model based on international best practices.

Key words: Eco-tourism, agro-tourism, competitiveness, tourism product, sustainable development, regional potential, innovative services, local brand, tourism marketing, environmental sustainability, community involvement, tourism management.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы и практические аспекты разработки конкурентоспособных туристских продуктов в сфере эко- и агротуризма. В частности, исследуются возможности развития региональной экономики, повышения занятости местного населения и удовлетворённости туристов за счёт создания экологически чистых, локально ориентированных и устойчивых туристских продуктов. В статье приведён анализ на примере регионов Узбекистана с потенциалом эко- и агротуризма, а также рассмотрены перспективы разработки конкурентоспособных продуктов через современные маркетинговые подходы, цифровые технологии и создание локальных брендов. Кроме того, представлены предложения по разработке национальной модели на основе международного опыта.

Ключевые слова: Экотуризм, агротуризм, конкурентоспособность, туристский продукт, устойчивое развитие, региональный потенциал, инновационные услуги, локальный бренд, туристский маркетинг, экологическая чистота, участие местного населения, управление туризмом.



KIRISH

So'nggi yillarda eko va agro-turizm yo'nalishlari global turizm sohasining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. BMTning Turizm bo'yicha Butunjahon tashkiloti (UN Tourism) va Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) tomonidan ta'kidlanishicha, barqaror va ekologik yo'naltirilgan turizm modellarini joriy etish orqali nafaqat turizm sifati o'sishga erishish, balki hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlash ham mumkin. Xususan, UN Tourism 2030 yilgacha mo'ljallangan "Barqaror turizm strategiyasi"da eko va agro-turizm orqali mahalliy jamoalarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish, madaniy merosni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadlarini ilgari surgan.

WTTC tomonidan e'lon qilingan 2024-yilgi hisobotda esa, ekologik va qishloq turizmi global turizm yalpi qo'shilgan qiymatining taxminan 10 foizini tashkil qilayotgani qayd etilgan. Bu yo'nalishlardagi mahsulotlar tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda, chunki ular sayyohlarga noyob tajriba, mahalliy madaniyat bilan bevosita tanishish, va ekologik javobgarlik asosida safar qilish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ham eko va agro-turizm salohiyati yuqori bo'lgan tog'li va qishloq hududlar mavjud bo'lib, ularni raqobatbardosh turizm mahsulotlari asosida rivojlantirish iqtisodiy va ijtimoiy foydani oshirish imkonini beradi. Mazkur maqolada ana shunday istiqbolli yo'nalishlarda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning nazariy asoslari, amaliy yondashuvlari va xorijiy tajribalar asosida milliy model takliflari yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasida ekologik va qishloq (agro) turizmini rivojlantirish borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ushbu yo'nalishlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, "Turizm to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda, 2019-yil 18-mart, O'RQ-561-son) da barqaror, ekologik xavfsiz va hududiy turizm turlarini qo'llab-quvvatlash masalalari alohida e'tiborga olingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi qarorida turizmni iqtisodiy rivojlanishning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish, shu jumladan, eko va agro-turizm tarmoqlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada aynan hududlar kesimida mahalliy resurslardan samarali foydalanish, sayyohlar uchun ekologik toza, madaniy merosga asoslangan xizmatlarni taklif etish orqali raqobatbardosh mahsulotlar yaratish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-iyundagi PQ-289-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarda turizmni rivojlantirish dasturi"da eko va agro-turizmni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash, qishloq joylardagi mehmon uylari faoliyatini tartibga solish, subsidiya va imtiyozlar ajratish orqali ushbu turlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ushbu huquqiy asoslar eko va agro-turizm turlarini faqatgina hududiy rivojlanish omili sifatida emas, balki raqobatbardosh milliy turizm mahsulotlarini shakllantirishning muhim manbai sifatida qarashga imkon yaratmoqda. Mazkur normativ hujjatlar ijrosi doirasida ekologik toza transport, innovatsion turizm obyektlari va mahalliy hunarmandchilik bilan bog'liq xizmatlar jadal rivojlanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda barqaror, ekologik xavfsiz va mahalliy resurslarga asoslangan turizm turlariga qiziqish ortdi. Bu jarayon eko va agro-turizm mahsulotlarini raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan chuqur o'rganishni talab qildi.

UN Tourism (2022) e'lon qilgan "Rural Development through Tourism"¹ hisobotida ta'kidlanishicha, qishloq turizmi pandemiyadan keyingi davrda turizmning tiklanishida muhim omil bo'lib, aynan mahalliy xususiyatga ega va ekologik toza mahsulotlar asosida shakllanmoqda. Hisobotda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun quyidagi omillar zarurligi qayd etilgan: sifat, barqarorlik, madaniy qadriyatlar, raqamlashtirish va tajriba asosidagi xizmatlar. WTTC (2023) yilgi "Tourism Trends Post-Pandemic"² hisobotida eko va agro-turizm mahsulotlari bo'yicha quyidagi raqamlar keltirilgan: global turistlarning 76% i ekologik jihatdan mas'uliyatli xizmatlarni afzal ko'radi, 62% esa qishloq hududlariga safar qilishni ma'qul ko'radi. Bu esa raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishda mahalliy tabiat, qishloq xo'jaligi va etnografik resurslarga asoslanish muhimligini ko'rsatadi.

Rastegar, H. & Rastegar, R. (2021) o'z tadqiqotlarida eko-turizm mahsulotlarining muvaffaqiyati tabiiy resurslardan tashqari, mahalliy jamoaning ishtiroki va xizmat sifatiga ham bog'liqligini asoslab bergan. Ularning fikricha, "faqat mavjudlik emas, balki taqdimot va xizmatning professional darajada bo'lishi raqobatbardoshlikni belgilaydi".

O'zbekistonda tadqiqotlarda Karimova N. (2021)³ tomonidan olib borilgan tahlilga ko'ra, O'zbekistonda eko va agro-turizm salohiyati yuqori bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi mahsulotlar raqobatbardoshligiga to'liq erishilmagan. Sabab sifatida yetarlicha differensial marketing, hududiy brendlar mavjud emasligi, va raqamli

1 www.unwto.org

2 www.wttc.org

3 Karimova, S. (2023). Samarqand viloyatida agro-turizm salohiyatini baholash va takomillashtirish yo'llari. – T.: TDIU



xizmatlar sustligi ko'rsatilgan. Saidova M. (2022) o'z tadqiqotida Namangan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida agro-turizmni rivojlantirish uchun "mahalliy kooperatsiya asosidagi mahsulotlar yaratish" va ularni "ekoturistik paketlar" ko'rinishida bozorga chiqarishni taklif etgan. Turobov A. (2023) esa Toshkent viloyati misolida olib borgan tadqiqotida "raqobatbardosh eko-turistik mahsulot yaratishda marketing strategiyasi va loyihalash bosqichi yetarlicha ilmiy yondashuvga muhtoj" ekanini ta'kidlagan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

Eko va agro-turizmda raqobatbardosh mahsulotlar tabiiy va madaniy resurslar, mahalliy jamoa ishtiroki, innovatsion xizmatlar va raqamlashtirilgan marketingga asoslangan holda yaratilmoqda;

O'zbekistonda eko va agro-turizmga oid salohiyat mavjud bo'lsa-da, bozorga yo'naltirilgan yondashuv, differensial xizmatlar, va strategik menejment yetarlicha rivojlanmagan;

Mavjud ilmiy adabiyotlar ko'proq salohiyat haqida yozgan bo'lsa-da, raqobat ustunligini belgilovchi indikatorlar, mijoz segmentatsiyasi, va milliy mahsulotlarning xalqaro bozorga chiqishi bo'yicha chuqur tadqiqotlar kam.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillardan ko'rinadiki, eko va agro-turizm bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik mas'uliyat, mahalliy resurslardan foydalanish va jamoalarning iqtisodiy faolligini oshirish vositasi sifatida faol rivojlanmoqda. UN Tourism va WTTC tomonidan 2022–2023-yillarda e'lon qilingan hisobotlarda turistlar orasida ekologik toza, barqaror va madaniy jihatdan boy mahsulotlarga talab ortib borayotgani qayd etilgan. Bu holat raqobatbardosh mahsulot yaratishda yangicha yondashuvlarni joriy qilish zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va milliy tajribalar esa shuni anglatadiki, mamlakatimizda eko va agro-turizm mahsulotlari ko'proq mavjud resurslarga tayanadi, biroq ularni raqobatbardosh tijorat mahsuloti sifatida shakllantirishda bir qator kamchiliklar mavjud.

Tahlillarga ko'ra, raqobatbardosh eko va agro-turistik mahsulot yaratishda quyidagi asosiy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Hududiy xususiyatlar va iqlim sharoitlariga mos xizmat paketlarini ishlab chiqish;

Mahalliy brendlarni shakllantirish va xalqaro bozorlarga moslashtirish;

Sayyohlar ehtiyojiga yo'naltirilgan mahsulot dizayni va tajriba asosida xizmatlar ko'rsatish;

Raqamli platformalar va onlayn reklama tizimlari orqali mahsulotlarni ilgari surish;

Mahalliy jamoalar ishtirokida ishlab chiqilgan va ularning manfaatlariga xizmat qiladigan loyihalar asosida mahsulotlarni ishlab chiqish.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, O'zbekiston sharoitida eko va agro-turizm yo'nalishida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish real imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, bu jarayonni ilmiy yondashuvlar, soha mutaxassislari va davlat siyosati bilan uyg'unlashtirish zarurati mavjud. (1-jadval).

1-jadval. Eko va agro-turizm raqobatbardosh mahsulotlarni shakllantirish tizimi

№	Asosiy omillar	Mavjud muammolar	Taklif etilayotgan yechimlar
1	Hududiy salohiyat va resurslar	Resurslar bor, lekin ular tijoratlashtirilmagan	Hududlar bo'yicha mahsulot turlari segmentatsiyasi, loyihaviy asosda mahsulot dizayni
2	Mahalliy brendlar va servis xizmatlari	Agro va eko-brendlar kam, xizmatlar standartlashtirilmagan	Mahalliy identitetga asoslangan brendlar yaratish, xizmatlarni sertifikatlash
3	Sayyohlar ehtiyojiga yo'naltirish (targeting)	Raqobatbardosh bozor tahlili mavjud emas	Sayyohlar segmentatsiyasiga asoslangan mahsulot paketlari ishlab chiqish
4	Raqamli marketing va targ'ibot	Agro va eko mahsulotlar onlayn platformalarda kam yoritilgan	Mahsulotlarni digital marketing orqali targ'ib qilish, SEO va SMM strategiyalarni joriy etish
5	Mahalliy jamoa ishtiroki	Jamoa vakillari turizmga to'liq ishtirok etmaydi	Kooperatsiya asosidagi mahsulot ishlab chiqish va ularni ijtimoiy tadbirkorlik bilan bog'lash
6	Xalqaro tajriba va standartlarga moslik	Xalqaro sertifikatlash, hamkorlik loyihalari yetarli emas	Ekologik mahsulotlar uchun "eco-label", "agro-cert" kabi standartlar joriy etish



Ushbu jadval eko va agro-turizmda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqish bo'yicha amaliy muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asoslangan yechimlar bilan bog'lash imkonini beradi.

1. Hududiy resurslar va salohiyatdan foydalanish:

Aksariyat hududlarda tabiiy va madaniy resurslar mavjud, lekin ular tizimli va tijorat ko'rinishida mahsulotga aylantirilmagan.

Taklif sifatida hududlar bo'yicha segmentatsiya asosida maxsus mahsulot turlarini ishlab chiqish zarur.

2. Brendlash va xizmatlar:

O'zbekistonda eko va agro-turistik mahsulotlar ko'pincha nom brendsiz va past sifatli xizmatlar bilan bog'liq. Brend va xizmat sifatini sertifikatlash raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim.

3. Targeting va marketing:

Mahsulotlar turistlarning ehtiyojlariga yo'naltirilmagan, ommaviy yondashuv ustun.

Individual ehtiyojlarga mos target paketlar ishlab chiqish orqali mijozga yo'naltirilganlik kuchaytiriladi.

4. Raqamli marketing zaifligi:

Zamonaviy turizmda onlayn ko'rinish bo'lmagan mahsulotlar deyarli bozorga chiqmaydi.

SMM, SEO, bloglar orqali mahsulotni global auditoriyaga yetkazish muhim.

5. Jamoa ishtirokini oshirish:

Turizm mahalliy jamoalar ko'pincha faqat xizmat ko'rsatish emas, balki mahalliy mahsulot ishlab chiqarish, sayyohlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lish orqali faol ishtirok etishi lozim.

6. Xalqaro standartlar va tajriba:

Mahsulotlar xalqaro sertifikat va tan olinadigan "eco" yoki "organic" belgilarisiz raqobatga to'liq kirisha olmaydi.

Global darajadagi standartlar joriy etilishi zarur.

2-jadval. 2020-yildan keyingi ilmiy manbalar asosida eko va agro-turizm mahsulotlarining dolzarb tendensiyalari

Manba	Mavzu	Asosiy xulosa
UN Tourism (2022)	Rural Development through Tourism	Qishloq turizmi — pandemiyadan keyingi tiklanishda asosiy yo'nalishlardan biri
WTTC (2023)	Tourism Trends Post-Pandemic	Eko-agro turizmga talab oshdi; raqamli xizmatlar va barqarorlik asosiy ustuvorlik
Rastegar H. (2021)	Local involvement in eco-tourism	Mahsulotlar raqobatbardosh bo'lishi uchun xizmat sifati va jamoa ishtiroki muhim
Karimova N. (2021, O'zbekiston)	O'zbekistonda agro-turizm salohiyati tahlili	Hududiy strategiyalar yetarli emas, marketing sust
Saidova M. (2022, O'zbekiston)	Agro-turizm mahalliy kooperatsiya asosidagi takliflar	Mahalliy mahsulotlar paket ko'rinishida ishlab chiqilishi lozim

2020-yildan keyingi adabiyotlar eko va agro-turizm 3 asosiy tendensiyani ko'rsatmoqda:

1. Post-pandemiya sharoitida o'suvchi talab:

UN Tourism va WTTC hisobotlariga ko'ra, pandemiyadan keyin sayyohlar tabiatga yaqin, sog'lom muhitdagi xizmatlarga ustuvorlik bermoqda.

Bu, ayniqsa, agro-turizm organik mahsulotlar, ekologik uy-joylar, dehqon tajribasi asosidagi ekskursiyalarga talabni kuchaytirgan.

2. Mahalliy ishtirokning o'sib borayotgan ahamiyati:

Rastegar (2021) va O'zbekistonlik tadqiqotchilar (Karimova, Saidova) asarlarida ta'kidlanishicha, mahalliy jamoalar ishtirokisiz barqaror agro-turistik mahsulot yaratib bo'lmaydi.

Bu esa ko'proq kooperatsiya va o'z manfaatini anglagan jamoalarning ishtirokini talab qiladi.

3. Marketing va standartlashtirish:

WTTC (2023) agro-eko mahsulotlarni raqobatbardosh qilish uchun ularni standartlashtirish, paketlashtirish va global bozorlarga tayyor holatda chiqarishni ta'kidlagan.

O'zbekistonda bu soha marketing va mahsulot yondashuvi jihatidan modernizatsiyaga muhtoj.

O'zbekiston uchun eko va agro-turizm — katta salohiyatga ega bo'lgan, ammo kam daromad keltirayotgan yo'nalishlardan biridir. Jadvaldagi muammolar real sharoitni ochib beradi va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy-amaliy yechimlar orqali asoslab berilgan. Mahsulot raqobatbardosh bo'lishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:



Turist ehtiyojini to'g'ri aniqlagan (targeting).
Mahalliy jamoaga asoslangan.
Sifatli, ekologik va tajribaviy jihatdan boy.
Brendli va raqamli bozorga mos.
Xalqaro tan olingan standartlarga ega.

Eko va agro-turizm sohalari zamonaviy turizmning barqaror va ekologik yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki hududiy rivojlanish, madaniy merosni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda bu yo'nalish bo'yicha mavjud tabiiy, agrobiologik va madaniy resurslar yetarli bo'lsa-da, ularni raqobatbardosh mahsulot sifatida shakllantirish va xalqaro bozorda ilgari surish bo'yicha tizimli yondashuv yetishmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, agro va eko-turistik mahsulotlarni samarali rivojlantirish uchun quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega: mahalliy jamoalarning faol ishtiroki, brend yaratish va xizmatlarni standartlashtirish, zamonaviy marketing vositalaridan (xususan, raqamli marketingdan) samarali foydalanish, hamda xalqaro tajribani mahalliy sharoitga uyg'unlashtirish.

2020-yildan keyingi davrda UN Tourism va WTTC kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari eko va agro-turizmga global talab oshganini tasdiqlaydi. Bunda ayniqsa, pandemiyadan keyingi sayyohlik ehtiyojlarining o'zgarishi, ya'ni xavfsiz, sog'lom, ekologik toza va ijtimoiy mas'ul turizmga bo'lgan talabning kuchaygani muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bois, O'zbekistonda bu yo'nalish bo'yicha raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish jarayonida resurslardan to'g'ri foydalanish, ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirilgan mahsulot dizayni yaratish, barqarorlik prinsiplariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu esa, eko va agro-turizm sohasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatini kuchaytirib, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turizm, madaniy meros va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son Farmoni hamda «Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2022 yil 18 fevraldagi PQ-135-son qarori. – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6165-son farmoni
3. Ritchie J.B., Crouch G.I. A Model of Destination Competitiveness and Sustainability /WangY., Pizam A. (eds.)// Tourism Destination Marketing and Management:Theories and applications.-2011.-P.326-339
4. M. Amonboyev, Sh. Sayfutdinov, M. Nurfayzieva Fundamentals of tourism. Textbook. TSUE. 2021
5. M. Aliyeva. Turizm asoslari.darslik –T.: Fan va texnologiya, 2022. - 400 b.
6. Karimova, S. (2023). Samarqand viloyatida agro-turizm salohiyatini baholash va takomillashtirish yo'llari. – T.: TDIU
7. Хисматова, М.А. (2022). Агро ва эко-туризмни ривожлантиришда замонавий ёндашувлар. // “Иқтисодий таҳлил” илмий журнали, №3, Б. 45–50
8. Rastegar, H. (2021). Ecotourism for Community Development: A Model for Sustainable Growth. Journal of Tourism Planning and Development, Vol. 18(1), pp. 12–25.
9. Sayyora Rikhsibaevna et al. Organizational and Economic Aspects of the Development of the International Tourism and Hospitality Industry. Journal of Environmental Management and Tourism, [S.l.], v. 11, n. 4, p. 913-919, june 2020. ISSN 2068-7729.
10. Juraeva, N. , Nurfayzieva, M. , Bakhromov, A. , & Oppokkhonov, N. . (2023). “Exploring the Potential of Rural Tourism Development: A Case Study of Ovjazsoy in the Tashkent Region, Uzbekistan.EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(5), 171–176. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1745>.
11. Klaus Schwab, Saadia Zahidi. The Global Competitiveness Report Special Edition 2020: How Countries are Performing on the Road to Recovery. World Economic Forum 2020.
12. UNWTO (2023). Tourism and Rural Development: Unlocking the Potential of Territories. Madrid: UN Tourism Publications.
13. WTTC (2022). Trends in Ecotourism and Sustainability. World Travel & Tourism Council. www.wttc.org
14. WTTC (2023). Sustainable Travel: Building a Resilient Tourism Future. London: WTTC.
15. FAO (2021). Agrotourism and Rural Livelihoods in Central Asia: A Policy Review. – Rome: FAO Publishing



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
